



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xalimov Shaxboz Xalimovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası. dotsenti v.b., PhD
Email: shaxbozxalimov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish masalasi o'rganilgan. Raqamli infratuzilma, onlayn platformalar, elektron to'lov tizimlari va raqamli marketingning qishloq turizmini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan. Turizm xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, mavjud muammolar va istiqbollar ko'rib chiqilgan. Natijada qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, qishloq turizmi, turizm xizmatlari, raqamlashtirish, infratuzilma, elektron to'lovlar, marketing.

Abstract: This paper examines the improvement of rural tourism service efficiency under the conditions of the digital economy. It analyzes the impact of digital infrastructure, online platforms, electronic payment systems, and digital marketing on rural tourism development. The study identifies key factors affecting service efficiency and highlights main challenges and prospects. As a result, practical recommendations are proposed for enhancing digital infrastructure and developing rural tourism in Uzbekistan.

Keywords: digital economy, rural tourism, tourism services, digitalization, infrastructure, e-payments, marketing.

Абстрактный: В данной работе исследуется повышение эффективности туристических услуг в сельской местности в условиях цифровой экономики. Рассматривается влияние цифровой инфраструктуры, онлайн-платформ, электронных платежных систем и цифрового маркетинга на развитие сельского туризма. Проведен анализ факторов, влияющих на эффективность туристических услуг, а также выявлены основные проблемы и перспективы развития. В результате предложены практические рекомендации по совершенствованию цифровой инфраструктуры и развитию сельского туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: цифровая экономика, сельский туризм, туристические услуги, цифровизация, инфраструктура, электронные платежи, маркетинг.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga, jumladan turizm sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar ko'rsatishning yangi shakllari, innovatsion texnologiyalar va onlayn platformalarning keng joriy etilishi turizm faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

Ayniqsa, qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq hududlari boy tabiiy resurslar, madaniy meros va an'anaviy turmush tarzi bilan turistlar uchun jozibador hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani va xizmatlar sifati bilan bog'liq ayrim muammolar mavjudligi turizm salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda qishloq turizmini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Bu jarayonda raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanish, jumladan onlayn bron qilish tizimlari, raqamli marketing va elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qishloq joylarida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Bu orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy aholi daromadlari oshadi hamda hududlarning investitsion jozibadorligi kuchayadi. Shuningdek, Jahon turizm tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni turizmga keng joriy etish qishloq turizmining global raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish masalasini o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida turizm xizmatlarini raqamlashtirish orqali hududiy iqtisodiyotni faollashtirish, bandlikni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengaymoqda. So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga integratsiya qilishning iqtisodiy samaradorligi keng tahlil qilinmoqda.

Turizm xizmatlarini raqamlashtirish masalalarini o'rganigan olimlar internet platformalari, mobil ilovalar va elektron marketing vositalari qishloq turizmini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan, UNWTO hisobotida raqamli texnologiyalar turizm xizmatlarini global bozorlarga olib chiqish, turistlar oqimini boshqarish hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekani qayd etilgan [1]. Tadqiqotda ayniqsa, elektron bronlash tizimlari va raqamli reklama vositalarining qishloq turizmi raqobatbardoshligini oshirishdagi roli alohida ko'rsatib o'tilgan.

Jahon banki ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qishloq joylarida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishi asoslab berilgan [2]. Mualliflarning fikricha, raqamli platformalar orqali mahalliy turizm xizmatlarini xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyati kengayadi.

O'zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini raqamlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida turizm xizmatlarini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni keng joriy etish va hududiy turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [3]. Mazkur strategik hujjat turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qishloq turizmi xizmatlarini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalarining ahamiyati alohida yoritilgan. Xususan, marketing strategiyalarini raqamlashtirish orqali hududiy turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, turistlar oqimini ko'paytirish va xizmatlar bozorini kengaytirish

mumkinligi qayd etilgan [4]. Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlari va onlayn bronlash xizmatlari turizm korxonalarini samaradorligini oshirishi ta'kidlangan.

Turizm sohasida sun'iy intellekt, "big data" va bulutli texnologiyalarni qo'llash masalalari ham zamonaviy ilmiy ishlarda keng o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar ushbu texnologiyalar turistlarning ehtiyojlarini prognoz qilish, xizmatlarni individuallashtirish va turistik oqimlarni boshqarishda muhim vosita ekanligini asoslab bergan [5]. Ayniqsa, qishloq hududlarida raqamli monitoring tizimlari xizmat sifatini nazorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, qishloq joylarida turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ekologik va etnoturizm yo'nalishlarini raqamli platformalar orqali targ'ib qilish samarali natijalar berishi qayd etilgan [6]. Mualliflarning fikricha, raqamli kommunikatsiya vositalari orqali milliy qadriyatlar va hududiy turizm salohiyatini xalqaro miqyosda namoyish etish mumkin.

O'zbekiston hududlari statistikasiga oid ma'lumotlarda Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida raqamli turizm xizmatlari joriy etilishi natijasida turistlar soni va xizmatlar hajmi sezilarli oshgani qayd etilgan [7]. Bu esa raqamlashtirish turizm xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi ilmiy ishlarda qishloq turizmni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish ham muhim omil sifatida baholanmoqda [8]. Xususan, hududiy turizm infratuzilmasini raqamli boshqarish tizimlari orqali investitsion jozibadorlikni oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uchun raqamli marketing, elektron platformalar, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi [9].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish masalasini o'rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy nazariya, turizm iqtisodiyoti hamda raqamli transformatsiya jarayonlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Avvalo, nazariy tahlil usuli qo'llanilib, qishloq turizmi va raqamli iqtisodiyot bo'yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Xususan, Jahon turizm tashkiloti hamda Jahon banki materiallari tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv usuli qo'llanilib, qishloq turizmi xizmatlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu tizimda raqamli texnologiyalar, infratuzilma, xizmat ko'rsatish sifati va marketing elementlari o'zaro bog'liq omillar sifatida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda turizm xizmatlarining samaradorligi sezilarli darajada oshishi uchun raqamli texnologiyalar asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli platformalar, onlayn bron qilish tizimlari va elektron to'lov xizmatlarining joriy etilishi turistlar uchun qulayliklarni oshirib, xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirmoqda.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, O'zbekistonda qishloq turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud bo'lib, ayniqsa agroturizm va ekoturizm yo'nalishlarida raqamli yechimlar faol joriy etilmoqda. Internet qamrovining kengayishi va mobil texnologiyalardan foydalanish darajasining oshishi qishloq hududlarida turizm xizmatlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli marketing vositalaridan foydalanish qishloq turizmi obyektlarining xalqaro va ichki bozorda tanilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va turistik platformalar orqali axborot tarqatish turistlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bilan birga, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga ham imkon yaratadi. Bu esa qishloq turizmi subyektlari uchun raqobatbardoshlikni oshiradi.

Taqqoslash tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, Turkiya va Gruziya kabi davlatlarda raqamli iqtisodiyot elementlari qishloq turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ushbu tajriba O'zbekiston sharoitida ham samarali qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, asosiy muammolardan biri bu qishloq hududlarida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Shu bilan birga, turizm sohasida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlarining raqamli savodxonlik darajasi ham yetarli emasligi qayd etildi.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda turizm xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar¹

№	Omillar guruhi	Asosiy tarkibiy elementlar	Samaradorlikka ta'siri
1	Raqamli infratuzilma	Internet qamrovi, mobil aloqa sifati, Wi-Fi mavjudligi	Turistlar uchun axborotga kirish va xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi
2	Raqamli platformalar	Onlayn bron qilish tizimlari, turistik saytlar, mobil ilovalar	Xizmatlarga talabni oshiradi va jarayonlarni tezlashtiradi
3	Raqamli marketing	Ijtimoiy tarmoqlar, SEO, target reklama	Qishloq turizm obyektlarining tanilishini kengaytiradi
4	To'lov tizimlari	Elektron to'lovlar, bank kartalari, QR to'lovlar	Moliyaviy operatsiyalarni soddalashtiradi va qulaylik yaratadi
5	Infratuzilma (an'anaviy)	Yo'llar, transport, mehmonxona va dam olish maskanlari	Turistlar harakatlanishini va yashash sharoitini yaxshilaydi
6	Kadrlar salohiyati	Raqamli savodxonlik, xizmat ko'rsatish madaniyati	Xizmat sifati va mijozlar qoniqishini oshiradi
7	Davlat qo'llab-quvvatlashi	Subsidiyalar, imtiyozlar, dasturlar	Investitsiyalarni jalb qiladi va rivojlanishni tezlashtiradi
8	Mahalliy resurslar	Tabiiy landshaft, madaniy meros, an'analar	Turistik jozibadorlikni oshiradi

Tahlil qilingan omillar shuni ko'rsatadiki, qishloq joylarda turizm xizmatlari samaradorligi bir nechta o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanadi. Eng muhim omillardan biri raqamli infratuzilma bo'lib, internet qamrovi va mobil aloqa sifati qanchalik yuqori bo'lsa, turistlar uchun axborot olish va xizmatlardan foydalanish shunchalik qulaylashadi. Bu esa turistik oqimning oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli platformalar va onlayn xizmatlar turizm jarayonlarini soddalashtirib, bron qilish, xizmat tanlash va rejalashtirishni tez va samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli marketing vositalari qishloq turizm obyektlarining keng ommaga tanilishini ta'minlab, ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi moliyaviy operatsiyalarni qulaylashtirib, turistlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. An'anaviy infratuzilma, ya'ni yo'llar, transport va mehmonxona xizmatlarining rivojlanishi esa turizmning amaliy jihatdan samarali ishlashini ta'minlaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot qishloq turizmni rivojlantirishda muhim katalizator vazifasini bajaradi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Raqamli infratuzilma, onlayn platformalar, elektron to'lov tizimlari va raqamli marketing vositalarining rivojlanishi qishloq turizmning jozibadorligini oshirib, turistlar oqimini ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda qishloq turizmni rivojlantirish uchun tabiiy va madaniy resurslar yetarli bo'lsa-da, ularni to'liq ishga solish raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlanadi. Raqamli iqtisodiyot elementlari turizm xizmatlarini tezkor, shaffof va samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Umuman olganda,

¹ Muallif ishlanmasi

qishloq turizmi samaradorligi raqamli texnologiyalar, inson kapitali, infratuzilma va davlat qo'llab-quvvatlashi uyg'unligida shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan holda quydagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, xususan tezkor internet va mobil aloqa sifatini yaxshilash lozim.

Ikkinchidan, turizm subyektlari uchun yagona raqamli platformalar (bron qilish, to'lov, axborot tizimlari)ni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, kichik biznes va mahalliy aholi uchun raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish zarur.

To'rtinchidan, qishloq turizmini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli marketingdan samarali foydalanishni kuchaytirish kerak.

Beshinchidan, Jahon turizm tashkiloti tavsiyalariga asoslangan holda raqamli turizm strategiyalarini ishlab chiqish va milliy amaliyotga joriy etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan to'liq foydalanish qishloq turizmini rivojlantirishning asosiy omili bo'lib, ushbu yo'nalishda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakat turizm salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. United Nations World Tourism Organization, Digital Transformation and Tourism Development Report, UNWTO, 2023.
2. World Bank, Digital Economy and Rural Tourism Development, World Bank Publications, 2024.
3. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2023.
4. Karimov B., "Raqamli marketing texnologiyalarining turizm xizmatlari samaradorligiga ta'siri", Marketing va menejment jurnali, №3, 2024.
5. Smith J., Brown T., "Artificial Intelligence in Tourism Services", Journal of Digital Economy, vol. 12, no. 2, 2024.
6. Ahmedov S., "Qishloq turizmini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari", Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №5, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "2024-yilda turizm xizmatlari ko'rsatkichlari", Toshkent, 2024.
8. Lee K., "Public-Private Partnership in Rural Tourism Development", Tourism Economics Journal, vol. 18, no. 4, 2024.
9. Rasulov A., "Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm infratuzilmasini boshqarish", Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №2, 2025.